

Jizzax davlat pedagogika universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti Usmonjon Qosimov taqdiri ostida

## ISTIQLOL YILLARIDA O'ZBEK SHE'RIYATINING O'ZIGA XOSLIGI

*Sharofova Zuhra Dilmurod qizi*

*Jizzax davlat pedagogika universitetining*

*O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi 2-bosqich magistranti.*

*99 554 92 64*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada istiqloq yillarida o'zbek she'riyatining o'ziga xos jihatlari hamda shoira Shahlo Ahrorovning she'rlaridan keltirilgan vatan madhi haqida fikr va mulohazalar o'rin olgan.

**Kalit so'zlar:** o'zbek adabiyoti, shoira, she'riyat, ijodkorlar, ma'naviy hazina

**Аннотация:** В данной статье собраны мысли и комментарии об уникальных аспектах узбекской поэзии в годы независимости и государственном гимне на стихи поэтессы Шахло Ахроровой.

**Ключевые слова:** узбекская литература, поэтесса, поэзия, творцы, духовное сокровище

**Abstract:** This article contains thoughts and comments about the unique aspects of Uzbek poetry during the years of independence and the national anthem from the poems of poetess Shahlo Ahrorova.

**Key words:** Uzbek literature, poetess, poetry, creators, spiritual treasure

**KIRISH.** XX asr o'zbek adabiyoti o'zining serqirraligi, yangi oqim va janrlarning adabiyotimizga kirib kelishi, asarlardagi mavzu va g'oyaning o'zgachaligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, mustaqillikka erishganimizdan so'ng barcha sohalar singari adabiyotimiz tarixida ham yangi bir davr, yangi bir sahifa ochildi. Istiqloq yillari qator adabiy jarayonimiz muayyan ma'nodagi, ijodiy sarhisob davri bo'ldi.

Yangi bosqich o'zbek she'riyatining ko'lami yanada kengaydi. G'arb adabiyotining sonet va modern yo'nalishlaridan tortib, olis yapon she'riyatidagi tanka, xokku shakllaridagi asarlarga paydo bo'ldi. To'g'ri, bu shakllarning ayrimlari she'riyatimizda ilgari bosqichda ham mavjud edi. Biroq shakl va yo'nalishlarda endi yangi davr muammolari, istiqloq davri kishisining ichki dunyosi va tasvir vositalari, yangi g'oyalar o'z ifodasini topa boshladi.

Bu davrdagi ijod namunalarida avvalgi bosqichdagi asarlarga xos bo'lmagan Vatan, Istiqloq, erk mavzu va muammolarning yangicha tasvirlariga, yangicha uslubiy talqinlariga va bu yo'nalishdagi yangi-yangi badiiy obrazlar, timsollarga duch kelamiz. Bu davrda A.Oripovning "Hikmat sadolari", "Savob", "Dunyo majmualari", "Ranjkom", "Sohibqiron" dramatik dostoni, YE.Vohidovning "Yaxshidir achchiq haqiqat" she'riy to'plami, "Donishqishloq latifalari", turkumi, Zulfiyaning "Xotira siniqlari" dostoni Asqad Muxtorning "Yillarim", "Uyqu qochganda", O.Matjonning "Ardaxiva afsonasi", "Nega men", "Qush yo'li", Ikrom Otamurodning "Uzoqlashayotgan Og'riq", "Sopol siniqlari", Oydin Hojiyevaning "Najot", Qutlibekaning "Tavba", "Qadimgi kuy" majmualari, Rauf Parfining "Tavba" Sirojiddin Sayyidning "Qaldirg'ochlarga ber ayvoningni" "Ko'ksimdagi zangorilarim" "Vatanni o'rganish" Matnazar Abdulhakimning "Oydinlik", Faxriyorning "Ayolg'u" Mahmud Toirovning "Haqni tanib" to'plamlari Tohir Qahhor, Farida Afro'z, Usmon Azim, Minhojiddin Mirzo, Iqbol Mirzo, Sirojiddin Sayyid, Bobur Bobomurod, Shahlo Axrorova, Oydin Donishova, Zulfiya Qurolboy qizi, Jamila Ergasheva va boshqa ko'plab ijodkorlarning ijodlari hozirgi adabiy jarayonimizda

anchagina salmoqli va zalvorli falsafiy-psixologik tahlil hisobiga kengayib teranlashib borayotgani ma'lum bo'ladi.

### **METODOLOGIYA.**

So'nggi o'n besh yil ichida adabiy jarayonga nazar tashlar ekanmiz adabiyotimizning hech bir bosqichi deyarli barcha masalalarda bu davrdagidek rang-barang, sertarmoq, sermahsul, serjilo va hatto ba'zan ayrim kutilmagan, hayratomuz hodisalarga boy bo'lmaganini ko'ramiz.

Bu yangilanish jarayonida, milliy g'oya va Vatanga muhabbatning badiiy talqinini mustaqillik davri she'riyatida, shuningdek, shoira Shahlo Axrorova ijodi misolida alohida tizimli ravishda o'rganish o'rganish adabiyotimiz oldida turgan asosiy vazifalardan biri sanaladi. "Holbuki, "Biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi"<sup>1</sup>.

Binobarin, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son Oliy ta'lim muassalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu maqolaning mazmuni va natijasi ma'lum darajada xizmat qiladi.

Zamonaviy o'zbek she'riyati qisqa vaqt ichida o'ziga xos taraqqiyot va izlanishlar yo'lini bosib o'tdi. Bu, avvalo, sobiq sho'ro tuzumi davrida yo'qotilgan ijodiy fikrlash erkinligi qo'lga kiritilishi, keyinchalik janriy rang-baranglik, lirik qahramonning to'laqonli shaxs sifatida namoyon bo'lishi, milliy tariximizning qayta va haqqoniy tahlil etilishi, xalq og'zaki ijodi, o'zbek mumtoz so'z san'ati an'analari va jahon adabiyotining ilg'or yutuqlarini sintez qilgan holda yangi she'riyat maydonga kelishi bilan namoyon bo'lmoqda.

Zero, "O'zbekiston ilm-fan, intellektual salohiyat sohasida, zamonaviy kadrlar, yuksak texnologiyalar borasida dunyo miqyosida raqobatbardosh bo'lishi shart"<sup>2</sup>ligi adabiyotshunoslik fani oldiga ham nazariy tadqiqotlarni jahon andozalari darajasida olib borish majburiyatini yuklaydi. Mustaqillik davri o'zbek she'riyati o'ziga xosligini saqlab qolgan holda jahon adabiyotiga mansub jihatlarni ijodiy singdirganligi, uzoq asrlik adabiy an'alarimizga izdoshligi bilan ham ajralib turadi. Shundan kelib chiqib, milliy she'riyatning shakliy jihatlari – tuzilishi, qofiya, vazn, band tizimlarining g'oyaviyestetik ta'sirchanlik omillari bilan bog'liq xususiyatlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

### **NATIJALAR**

Istiqlol yillarida O'zbek she'riyati o'zbek xalqining milliy, modern asarlarini o'z ichiga olgan bir davr bo'lib, bunga O'zbekistonda mustamlakalar va tarqatuvchilar katta ahamiyat bergan. Bu davrda butun dunyo poeziyasiga manba bo'lgan yetakchi o'zbek she'rlari yaratilgan.

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga murojaatnomasi. –// [https:// review.uz](https://review.uz)

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2017 yil 22 dekabrdagi Oliy Majlisga murojaatnomasi // Xalq so'zi, 2017 yil 23 dekabr. – № 258 (6952).

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG)

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

Qodiriy, Fitrat, Furqat, Alisher Navoiy, Hamza Hakimzoda Niyozov, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Bozor Sobirov, Erkin Sulaymonov, O‘tkir Hoshimov, Temur Malik istiqloq yillaridagi shoir va yozuvchilarimizdan. Ularning asarlari milliy tarix, milliy obrazlar va o‘zbek adabiyoti bilan bog‘liq mavzularda edi.

Shunday adiblar orasidan Shahlo Ahrorovanning hayoti va ijod yo‘liga nazar solamiz. Shahlo Ahrorova Jizzax viloyatining Jizzax tumanida tug‘ilgan. 2006-2007-yillar Prezident huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasini tamomlagan.

Bugunga qadar 5 ta she‘rlar, dostonlar, qissalardan iborat to‘plamlari chop etilgan. (1994 yilda “E‘zozim”, 1997 yilda “Suydirdingiz, suymadingiz”, 2002 yilda “Mohim”, 2007 yilda “Seni o‘ylamoqdan voz kecholmayman”, 2009 yilda “Ishq nafasi” nomli she‘rlar to‘plami) “Dala hovlidagi qotillik” nasriy to‘plami chop etilish arafasida. Juda ko‘p she‘rlari qo‘shiq bo‘lgan. “Dilbar” qissasi asosida “O‘zbekiston” telekanalida teleserial ishlangan.

“Shuhrat” medali va O‘zbekiston yoshlari “Kamolot” mukofoti, O‘zbekiston mustaqilligining 20 yilligiga “Esdalik nishoni” sovrindori.

Shahlo Ahrorova she‘rlari tog‘ buloqlariday musaffo, tiniq. Ayni chog‘da ulardan saraton oftobiday haroratli qalb tafti ufurib turadi. She‘rlari dardchil va musiqiy misralarga, topilma tashbehlarga boydir. Shoiraning misralarga joylashgan lahcha cho‘g‘day yoniq tuyg‘ulari o‘quvchilar qalbini ham yondirishga qodir, hatto dardsiz yuraklarga ham dard yuqtira oladi, muhabbatning alangali og‘ushiga chorlaydi. Shu bois uning she‘rlari respublika matbuotida paydo bo‘lishi bilan o‘z o‘quvchilarni topdi, oshiq ko‘ngillarning tilmochiga aylandi.

Har bir qalb o‘zini e‘zozlagan ikkinchi bir e‘zozli qalbni qidirib yashaydi. U qalbda o‘z aksini ko‘rmoq istaydi. O‘z aksini ko‘rmoq orzusida tunlar mijja qoqmay shirin hayollarga toladi, ismsiz tuyg‘ular og‘ushida tong ottiradi. Ammo ijodkorlar qalbining e‘zozi o‘z qalbidir. Shuning uchun ham barcha ijodkorlar singari shoir ahli o‘z qalbiga, ya‘ni o‘z olamiga intilib yashaydi. Zero har bir shoir o‘z qalbining aksini faqat she‘riyatdagina ko‘ra oladi yohud namoyon eta biladi. Ha, she‘riyat shoirlar qalbining ko‘zgusi hisoblanadi.

Men shoira Shahlo Ahrorovanning ushbu ilk to‘plamini o‘qib chiqib, uning qarog‘idan soy bo‘lib tushgan hissiyotini, billur tomchilarga cho‘milib olgan tuyg‘ularini, alangali muhabbatini, dardhasratlarini yorish uchun hamroh qidrgan qalbini aniq-tiniq ko‘rdim. Bu, demak, shoira o‘z she‘rlariga qalbini bor bo‘yicha ko‘chira olganligining, o‘z olamini yarata olganligining tasdig‘idir. Uning she‘rlari dardchil bo‘lib, musiqiy, beixtiyor o‘quvchini o‘ziga jalb qiladigan ohangraboli, topilma tashbehlarga boy. So‘z orqali shoira tuyg‘ularni suvratlantira oladi, fikrlarni nurlantirib yuboradi.

Shahlo Ahrorova qaysi mavzuda qalam tebratmasin, yonib kuylaydi va tinglovchilari qalbiga ham o‘chmas cho‘g‘ tashlaydi. U o‘z qidrgan e‘zozini she‘riyatdan topganiga ishonchim komil, kitobxonlar tomonidan shoira she‘riyatining e‘zozlanishiga aminman, keljakda uning ajoyib shoirlarimiz qatoridan muqim o‘rin olishiga umidvorman.<sup>3</sup>

Biz ushbu maqolada shoiraning asarlarida keltirilgan vatan haqida his tuyg‘ularini quyidagi to‘tiklar asosida aytib bermoqchimiz.

Bir go‘shasan, alplar tug‘ib, daho o‘stirgan,  
Qadr ekib, iymon ekib, ibo o‘stirgan.  
Azal O‘ZBEK bilan BUYUK degan so‘z turgan!  
Sen buyuk va muqaddassan, mustaqil Vatan!<sup>4</sup>

<sup>3</sup> Shahlo Ahrorova “E‘zozim” Spitamen nashr. –Jizzax; 1994

<sup>4</sup> SHAHLO AXROROVA"JIYDA GULIM" dostonlar va she‘rlar. TOSHKENT «ADIB» NASHRIYOTI. 2012

Bizga ma'lumki, Vatanga bo'lgan muhabbat joy, makon va vaqt tanlamaydi. Vatan muzliklarda, sahrolarda, changalzorlarda bo'lishi mumkin. Bu tuyg'u inson tug'ilishi bilan vujudga kelib, vafot etishi bilan o'z poyoniga yetadi. Vatanga mehr esa, ona suti bilan qalbga singadi.

Shu o'rinda Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Burhoniddin Marg'inoniy, Qaffol Shoshiy, Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy, Mirzo Ulug'bek, Ahmad Farg'oniy, kabi buyuk allomalarimiz Vatanga bo'lgan kuchli muhabbatlari tufayli ko'plab asarlarini yurt nomi bilan bog'laganlari tarixdan ma'lum.<sup>5</sup>

Mehri butun, yoviga ham qahri yo'q onam,  
Ko'ngli toza, niyati pok, makri yo'q onam,  
Bolasining kelgusidan ko'ngli to'q onam,  
Sen – Mehrgan! Muhabbatsan, azizim Vatan

Ushbu she'rga nazar tashlaydigan bo'lsak, shoiramiz vatan so'zini qanchalik ulug'vor so'z ekanligini, mehribon onaga qiyoslaganini aytib o'tdi.

#### **XULOSA.**

Xalqimiz odatda Vatan so'ziga Ona so'zini qo'shib talaffuz qiladi: Ona vatan. Bu Vatanning onaday aziz, mehribon, jonkuyarligiga ishora bo'lsa kerak-da. Axir inson uchun onadan azizroq kishi bormi? Jismu jon ato qilib, yana boshimizda tunlarni bedor o'tkazgan zotdan, a? O'ziga bori zahmatlarni olib, rohatni farzandiga ilinganini ta'riflashga har qancha "mehribon" degan so'z kamlik qilmaydimi? O'zga jon uchun, uning baxti, kamoli, ertangi kuni deb kerak bo'lsa, o'z jonidan ham kechadigan yana kim bor olamda?! Aslida esa, mana shu tuyg'u, tasavvur, rishta, shuncha mehrning hammasi Vatanning bir parchasi, bir bo'lagi xolos.<sup>6</sup>

“Vatan ostonadan boshlanadi”, deganlaridek Vatan har bir kishining o'z qalbidan vijdonidan boshlanadi. Ya'ni, har kishining qalbida Vatanning jajji qiyofasi yashaydi. Vatan – biz nafas olayotgan havodir. Vatanning bir zarrasi ekanini anglamoq kishi uchun iftixor va sharafdir. Shu sababli vatanni sevmoq, qadrlamoq va ravnaqi hamda shonu sharafi uchun xizmat etmoq kerak. Bunday tushunchalar esa, adibimiz Shahlo Ahrorovanning ijodida kuzatishimiz mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga murojaatnomasi. –// [https:// review.uz](https://review.uz)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017 yil 22 dekabrda Oliy Majlisga murojaatnomasi // Xalq so'zi, 2017 yil 23 dekabr. – № 258 (6952).
3. Shahlo Ahrorova “E'zozim” Spitamena nashr. –Jizzax; 1994
4. SHAHLO AXROROVA"JIYDA GULIM" dostonlar va she'rlar. TOSHKENT«ADIB» NASHRIYOTI. 2012
5. Nozimjon og'li, S. S. (2022). INTRAEPITHELIAL IN VARIOUS PARTS OF THE SMALL INTESTINE QUANTITATIVE INDICATORS OF LYMPHOCYTES. *YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TARAQQIYOT VA INNOVASIYALAR*, 175-178.
6. Sobirjonovich, S. I. (2023). Systemic Organization of Professional Competence, Creativity and Innovative Activity of A Future Kindergartener. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 19, 108-112.

<sup>5</sup> Vatan va millat muqaddasdir. Toshkent, «Ma'naviyat» nashriyoti, 2000- yil, 8–18-betlar

<sup>6</sup> Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Toshkent, «O'zbekiston» nashriyoti, 2000-yil.

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG)

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

7. Shoxabbos, S., & Mahramovich, K. S. M. K. S. (2023). Causes of the origin of cardiovascular diseases and their protection. *IQRO JURNALI*, 1-6.
8. Soliyev, I., TIZIMIDA, B. S. M. T. L., & PEDAGOGIK, I. Y. U. A. V. (2023). SHART-SHAROITLARI.
9. Taxirovich, A. S. (2023). The Main Etiological Factors, Methods of Prevention and Treatment of Meningitis. *International Journal of Scientific Trends*, 2(2), 141-148.
10. qizi Turdaliyeva, N. A. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. *GOLDEN BRAIN*, 2(7), 48-52.
11. Pakirdinov, A. S., Madazimov, M. M., & Abdukadirov, D. A. (2022). Features of gastric and duodenal ulcers in elderly patients. *World Bulletin of Public Health*, 13, 63-66.
12. Abdurashidov, A., & Turdaliyeva, N. (2023). DEVELOPMENT OF MANUAL WORK IN PRE-SCHOOL EDUCATION. *Science and innovation*, 2(B2), 282-286.
13. Qizi, B. O. S., Qizi, X. D. A., & Yusupovich, M. I. (2022). IJTIMOIIY SIYOSAT: ROSSIYADA INKLYUZIV TA? LIM HAQIDA. *FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI*, 922-930.
14. Yusup o'g'li, M. I. (2022). Mustaqil ta'limni blended learning texnologiyasi asosida tashkil etish. *FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI*, 126-131.
15. Kuzieva, S. U., Imomova, D. A., & Duschanova, G. M. (2019). Structural features of vegetative organs *Spiraea hypericifolia* L., growing in Uzbekistan. *American Journal of Plant Sciences*, 10(11), 2086-2095.
16. Yusup o'g'li, M. I. (2024). OLIY TA'LIM MUASSALARIDA INKLYUZIV TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH: MUAMMO VA YECHIMLAR. *FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI*, 5(1), 1-10.
17. Кузиева, С. У., & Ишонкулова, Д. У. (2018). ВЫДЕЛЕНИЕ И ЭЛЕКТРОФОРЕТИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА МАЛАТДЕГИДРОГЕНАЗЫ ХЛОПЧАТНИКА. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION* (pp. 14-16).